



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 382 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmuratova Zebo Yuldash qizi
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчеҳра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project).....	368
Khurshida Kuchkarova	
O'spirinlarda kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlari.....	373
Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	
Pedagogical Factors and Didactic Conditions for Developing Communicative Competence in Future Teachers.....	378
Mirzayeva Gulshan Azamatovna	



O'SPIRINLARDA KIBERBULLINGNING PROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSION IMKONIYATLARI

Ibodova Gulimehr Inoyat qizi

Qarshi davlat universiteti psixologiya kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'spirinlik davrida kiberbullingning yuzaga kelish omillari, uning shaxs rivojlanishi va psixik salomatligiga ta'siri hamda profilaktik va psixokorreksion imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. O'spirinlik davri shaxsning identifikatsiyasi, ijtimoiy mavqe izlash, mustaqillikka intilish va emotsional beqarorlik bilan tavsiflanishi sababli kiberbulling ta'siriga nisbatan yuqori sezuvchanlik davri hisoblanadi. Tadqiqotda kiberbullingning psixologik zo'rvonlikning zamonaviy shakli sifatidagi mohiyati, uning o'spirinlarda xavotir, depressiv holatlar, ijtimoiy yakkalanish, o'z-o'zini baholashning pasayishi hamda kommunikativ qiyinchiliklarning shakllanishiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, kiberbullingning kelib chiqishida oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, internet madaniyati darajasi va shaxsning individual-psixologik xususiyatlari muhim determinantlar sifatida ko'rib chiqilgan. Maqolada kiberbullingning oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik yondashuvlar, xususan, raqamli savodxonlikni rivojlantirish, mediavaxfsizlik ko'nikmalarini shakllantirish, emotsional intellekt va empatiyani rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Bundan tashqari, individual va guruhi psixokorreksiya, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi elementlari, psixologik treninglar hamda ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarining o'spirinlar psixologik farovonligini tiklashdagi ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalari kiberbullingning salbiy oqibatlarini kamaytirishda oila, ta'lim muassasasi va psixologik xizmatning o'zaro hamkorligi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kiberbulling, o'spirinlik davri, psixologik zo'rvonlik, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, raqamli xavfsizlik, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuv, psixologik farovonlik.

Abstract: This article examines the psychological aspects of cyberbullying prevention and psycho-corrective interventions among adolescents. Adolescence is characterized by intensive personality development, identity formation, heightened emotional sensitivity, and an increased need for social recognition, making adolescents particularly vulnerable to various forms of psychological violence in the digital environment. The study explores the nature of cyberbullying as one of the most widespread forms of destructive online interaction that negatively affects adolescents' emotional well-being, self-esteem, interpersonal relationships, and social adaptation. Particular attention is paid to the psychological consequences of cyberbullying, including anxiety, depressive symptoms, social isolation, reduced academic motivation, and communication difficulties. The article analyzes the main directions of preventive work aimed at developing digital literacy, emotional intelligence, safe online behavior skills, and constructive communication competencies. The effectiveness of individual and group psycho-corrective programs, psychological training, and counseling services in overcoming the negative effects of cyberbullying is substantiated. The study concludes that effective prevention and intervention require comprehensive cooperation among families, educational institutions, and psychological support services to ensure a safe digital environment and promote adolescents' psychological well-being.

Key words: cyberbullying, adolescence, psychological violence, psychoprophylaxis, psycho-correction, digital safety, emotional intelligence, social adaptation, communicative competence, psychological well-being.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности профилактики и психокоррекционной работы по предупреждению кибербуллинга среди подростков. Подростковый возраст характеризуется интенсивными личностными преобразованиями, формированием самосознания, повышенной эмоциональной чувствительностью и потребностью в социальном признании, что делает подростков особенно уязвимыми к различным формам психологического насилия в цифровой среде. В исследовании раскрывается сущность кибербуллинга как одной из наиболее распространенных форм деструктивного онлайн-взаимодействия, оказывающей негативное влияние на эмоциональное состояние, самооценку, межличностные отношения и социальную адаптацию подростков. Особое внимание уделяется психологическим последствиям кибербуллинга, включая тревожность, депрессивные состояния, социальную изоляцию, снижение учебной мотивации и нарушения коммуникативной активности. Проанализированы основные направления профилактической деятельности, направленные на развитие цифровой грамотности, эмоционального интеллекта, навыков безопасного поведения в сети Интернет и конструктивного общения. Обоснована эффективность индивидуальных и групповых психокоррекционных программ, психологических тренингов и консультативной помощи в преодолении негативных последствий кибербуллинга. Сделан вывод о необходимости комплексного взаимодействия семьи, образовательных учреждений и психологических служб в формировании безопасной цифровой среды и обеспечении психологического благополучия подростков.

Ключевые слова: кибербуллинг, подростковый возраст, психологическое насилие, психопрофилактика, психокоррекция, цифровая безопасность, эмоциональный интеллект, социальная адаптация, коммуникативная компетентность, психологическое благополучие.

KIRISH

XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmog'i va ijtimoiy media platformalarining keng tarqalishi bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borganligi sababli yoshlarning kundalik faoliyati, muloqoti va ijtimoiylashuv jarayonlari ham sezilarli darajada virtual makonga ko'chib bormoqda. Ayniqsa, o'spirinlik davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, o'z fikrini erkin ifodalash hamda tengdoshlari bilan muloqot qilishning muhim vositasiga aylangan. Biroq, raqamli muhitning keng imkoniyatlari bilan bir qatorda uning salbiy jihatlari ham mavjud bo'lib, ulardan biri kiberbulling hisoblanadi.

Kiberbulling (cyberbullying) – axborot-kommunikatsiya vositalari orqali shaxsga nisbatan takrorlanuvchi, qasddan amalga oshiriladigan haqoratlash, tahqirlash, qo'rqitish, yolg'on ma'lumotlar tarqatish, obro'sizlantirish yoki ijtimoiy jihatdan chetlashtirish kabi psixologik zo'rvonlik harakatlarini o'z ichiga oladi. An'anaviy bullyingdan farqli ravishda, kiberbulling geografik va vaqt chegaralariga ega emasligi, anonim tarzda amalga oshirilishi hamda keng auditoriyaga tez tarqalishi bilan xavflidir. Shu sababli uning psixologik oqibatlari ko'pincha chuqurroq va uzoq muddatli bo'ladi.

So'nggi yillarda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar kiberbullingning o'smirlar va o'spirinlar orasida tobora keng tarqalayotganligini ko'rsatmoqda. Turli ilmiy manbalarda o'spirinlarning 20-40 foizi kamida bir marotaba kiberbulling qurboni bo'lganligi, 10-20 foizi esa kiberbullingni amalga oshirganligi qayd etilgan. Tadqiqotchilar kiberbullingning depressiya, xavotirlanish, stress, o'z-o'zini baholashning pasayishi, akademik muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy yakkalanish va suitsidal fikrlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydilar. Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kiberbulling ta'siriga uchragan o'spirinlarda ruhiy tushkunlik alomatlari tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori uchraydi. O'spirinlik davri inson ontogenezinging eng murakkab bosqichlaridan biri hisoblanib, bu davrda biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari intensiv kechadi. Mazkur davrda shaxsning o'zini anglash darajasi ortadi, mustaqillikka intilish kuchayadi, tengdoshlar fikriga nisbatan sezuvchanlik yuqori bo'ladi hamda shaxsiy identifikatsiya shakllanadi. Shu sababli virtual makonda sodir bo'ladigan har qanday salbiy ta'sirlar o'spirinning emotsional holatiga, ijtimoiy moslashuviga va shaxsiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan, kiberbulling nafaqat jabrlanuvchining ruhiy salomatligiga, balki agressor va kuzatuvchi pozitsiyasidagi shaxslarning psixologik rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kiberzo'rvonlikni amalga oshiruvchi o'spirinlarda empatiya darajasining pasayishi, agressiv xulq-atvorning kuchayishi va ijtimoiy me'yorlarga nisbatan befarqlik shakllanishi mumkin. Shu bilan birga, bunday holatlarning guvohi bo'lgan tengdoshlar orasida ham xavotir, qo'rquv va himoyasizlik hissi yuzaga keladi.

Bugungi kunda kiberbullingning oldini olish, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda o'spirinlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlarini o'rganish, samarali psixologik yordam mexanizmlarini ishlab chiqish hamda oila, maktab va jamiyat hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi o'spirinlarda kiberbullingning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, uning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda yoshlarning psixologik farovonligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kiberbulling muammosi XXI asrda psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va kiberxavfsizlik yo'nalishlarida faol o'rganilayotgan ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Internet texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda virtual makonda sodir etilayotgan psixologik zo'rvonlik holatlarining ortishi mazkur muammoni xalqaro miqyosda dolzarb tadqiqot obyektiga aylantirdi. Kiberbulling fenomenining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar uning o'spirinlar ruhiy salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlamoqda.

Bullying va agressiv xulq-atvor muammosini ilmiy jihatdan o'rganishning dastlabki konseptual asoslari norvegiyalik olim Dan Olveys tomonidan ishlab chiqilgan. Olim bullyingni kuchlar nomutanosibliigi sharoitida bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan muntazam ravishda salbiy ta'sir ko'rsatishi sifatida izohlaydi. Uning tadqiqotlari maktab muhitidagi zo'rvonlikning psixologik mexanizmlarini ochib berishga xizmat qilgan va keyinchalik kiberbulling tadqiqotlari uchun metodologik asos vazifasini bajargan. Olveysning fikricha, zo'rvonlikning har qanday shakli shaxsning psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va uzoq muddatli ruhiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kiberbulling tushunchasi va uning psixologik oqibatlarini o'rganishda Sameer Hinduja hamda Justin Patchinlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida kiberbulling internet va mobil texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan takrorlanuvchi va qasddan sodir etiladigan zararli xatti-harakat sifatida tavsiflanadi. Olimlarning empirik tadqiqotlari natijalariga ko'ra, kiberbulling qurbonlari orasida depressiv holatlar, xavotirlanish, yolg'izlik hissi, o'zini past baholash va suitsidal fikrlar boshqa tengdoshlariga nisbatan ko'proq uchraydi.

Tadqiqotchilar, shuningdek, internet muhitidagi anonimlik hissi agressiv xulq-atvorning kuchayishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Psixologik zo'rvonlikning shaxs rivojlanishiga ta'siri masalasi Albert Bandura-ni ijtimoiy o'rganish nazariyasida ham o'z aksini topgan. Olim inson xulq-atvori kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy tajriba orqali shakllanishini asoslab bergan. Ushbu nazariya kiberbullingning shakllanish mexanizmlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'spirinlar internet tarmoqlarida kuzatayotgan agressiv xulq namunalari o'zlashtirishi va keyinchalik amaliyotda qo'llashi mumkin.

O'spirinlik davrining psixologik xususiyatlarini tadqiq etgan Erik Erikson mazkur yosh bosqichini "identifikatsiya va rol mavhumligi" davri sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, o'spirinlar o'z shaxsiyatini anglash, ijtimoiy mavqei belgilash va tengdoshlari tomonidan tan olinishi uchun faol harakat qiladilar. Shu sababli ular internet muhitidagi baholashlar, izohlar va ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarga nisbatan yuqori darajada sezuvchan bo'ladilar. Bu esa kiberbullingning ruhiy ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Rossiyalik olimlar A.G. Asmolov, I.S. Kon va A.A. Reanlarning tadqiqotlarida internet makonining yoshlar ijtimoiylashuvidagi o'rni tahlil qilingan. Ular virtual muloqotning kengayishi bilan bir qatorda raqamli muhitda agressiv xulq-atvor va psixologik zo'rvonlik holatlarining ham ortib borayotganligini qayd etadilar. Tadqiqotchilar internet foydalanuvchilarida anonimlik hissi, nazoratning sustligi va javobgarlikning kamayishi agressiv harakatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratishini ta'kidlaydilar.

O'zbekistonlik psixolog olimlar E.G'. G'oziyev, M.G'. Davletshin, G'.B. Shoumarov, B.R. Qodirov va V.M. Karimovalarning ilmiy tadqiqotlarida o'smir va o'spirinlar psixologiyasi, shaxslararo munosabatlar, deviant xulq-atvor hamda psixologik xizmat muammolari keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, yoshlar shaxsining shakllanishida oila, ta'lim muhiti va tengdoshlar guruhi hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Garchi mazkur tadqiqotlarda kiberbulling muammosi bevosita o'rganilmagan bo'lsa-da, yoshlar orasidagi agressiv xulq-atvor, psixologik zo'rvonlik va kommunikativ muammolarni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, kiberbulling o'spirinlarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlarini kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarga ehtiyoj mavjud. Mazkur holat ushbu mavzuning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan zamonaviy jamiyatda kiberbulling fenomeni o'spirinlar psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur hodisaning mohiyati nafaqat virtual makonda amalga oshiriladigan agressiv xatti-harakatlar majmuasi bilan, balki shaxsning emotsional barqarorligi, ijtimoiy identifikatsiyasi va o'zini anglash jarayonlariga ko'rsatadigan tizimli ta'siri bilan ham belgilanadi. Kiberbullingning an'anaviy zo'rvonlik shakllaridan farqli jihati shundaki, u makon va vaqt chegaralaridan tashqarida mavjud bo'lib, jabrlanuvchining shaxsiy hududiga doimiy ravishda kirib boradi. Shu sababli kiberzo'rvonlik o'spirin psixikasida oddiy nizoli vaziyat emas, balki uzoq davom etuvchi psixologik jarohat sifatida shakllanishi mumkin. O'spirinlik davri shaxs ontogenezining o'ziga

xos bosqichi bo'lib, unda identiklikning shakllanishi, ijtimoiy mavqeni anglash, mustaqil qaror qabul qilish va tengdoshlar tomonidan qabul qilinish ehtiyoji kuchli namoyon bo'ladi. Mazkur davrda shaxsning "Men" konsepsiyasi hali to'liq barqarorlashmaganligi sababli tashqi baholashlar, ayniqsa, tengdoshlar fikri yuqori emotsional ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, kiberbulling o'spirinning nafaqat ijtimoiy mavqeiga, balki uning ichki psixologik tuzilmasiga ham ta'sir ko'rsatib, o'z-o'zini qadrlash tizimining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, kiberbullingning salbiy ta'siri bevosita zo'ravonlik faktining o'zidan emas, balki shaxs tomonidan ushbu tajribaning qanday subyektiv talqin qilinishidan kelib chiqadi. Ya'ni, bir xil virtual tajriba turli o'spirinlarda turlicha psixologik natijalarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu jarayonda shaxsning stressga chidamlilik darajasi, oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, ijtimoiy aloqalar sifati va individual psixologik xususiyatlari muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy himoya resurslari yetarli bo'lmagan holatlarda kiberbulling o'spirinida yolg'izlik, umidsizlik va ijtimoiy chekinish holatlarining chuqurlashishiga olib keladi. Kiberbullingning psixologik mexanizmlarini tahlil qilishda ijtimoiy o'rganish nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, inson xulq-atvori faqat ichki motivlar bilan emas, balki tashqi ijtimoiy modellarni kuzatish va o'zlashtirish jarayonida ham shakllanadi. Virtual muhitda agressiv kommunikatsiya, haqoratli kontentlar va zo'ravonlikni normallashtiruvchi holatlarning ko'payishi o'spirinlarda destruktiv xulq-shakllarining qabul qilinish ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi anonimlik va masofaviy muloqot shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissini susaytirib, kiberagressiyaning kuchayishiga sharoit yaratadi.

Kiberbullingni amalga oshiruvchi o'spirinlarning motivatsion sohasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bunday xulq-atvor ortida turli psixologik ehtiyojlar yotishi mumkin. Jumladan, ijtimoiy ustunlikka erishish, tengdoshlar orasida mavqe qozonish, ichki frustratsiyani tashqi obyektga yo'naltirish, qasos olish yoki e'tibor jalb qilish kabi motivlar kiberagressiv xatti-harakatlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Biroq mazkur motivlarning mavjudligi o'spirinning shaxsiy xususiyatlari, tarbiyaviy muhiti va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Kiberbulling profilaktikasiga zamonaviy psixologik yondashuvlar faqatgina taqiqlash yoki nazorat qilish tamoyiliga emas, balki shaxsning ichki resurslarini rivojlantirishga asoslanishi lozim. Chunki raqamli muhitdagi xavflarni kamaytirish uchun o'spirinida mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash, emotsiyalarni boshqarish va konstruktiv muloqot qilish kompetensiyalarini shakllantirish zarur. Shu jihatdan psixoprofilaktik ishlar o'spirinning raqamli madaniyatini rivojlantirish, empatik qobiliyatlarini oshirish va ijtimoiy mas'uliyat hissini mustahkamlashga yo'naltirilishi kerak.

Psixokorreksion yondashuv esa kiberbulling oqibatida yuzaga kelgan psixologik buzilishlarni bartaraf etish va shaxsning moslashuv imkoniyatlarini tiklashga qaratiladi. Individual konsultatsiyalar, guruhiy treninglar, emotsional holatni boshqarish texnikalari hamda kognitiv-xulq-atvor yo'nalishidagi korreksion usullar o'spirinning salbiy tajribalarni qayta anglashiga, o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishiga va samarali ijtimoiy strategiyalarni egallashiga yordam beradi.

Kiberbulling muammosini faqat texnologik yoki axloqiy muammo sifatida baholash yetarli emas. U shaxs rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar va psixologik xavfsizlik masalalarini qamrab oluvchi kompleks fenomen hisoblanadi. Shu bois o'spirinlarda kiberbullingning oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish uchun psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llash, shaxsning ijtimoiy-psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirish zamonaviy psixologiyaning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'spirinlar orasida kiberbulling hodisasi ularning psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar asosida kiberbullingga duch kelgan o'spirinlarda emotsional zo'riqish, xavotir, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi hamda ijtimoiy faollikning kamayishi kabi holatlar ko'proq kuzatilishi aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, kiberbulling ta'sirida bo'lgan o'spirinlarning 48 foizida yuqori darajadagi xavotir holati, 42 foizida o'zini baholash darajasining pasayishi, 39 foizida ijtimoiy chekinish va 51 foizida stressga moyillik holatlari namoyon bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar virtual muhitdagi tajovuzkor munosabatlar o'spirinlarning ruhiy barqarorligiga salbiy ta'sir qilishini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kiberbullingning asosiy psixologik oqibatlari o'spirinning o'z shaxsiga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi, tengdoshlar bilan muloqot qilishning qiyinlashuvi va emotsional himoya mexanizmlarining zaiflashuvi bilan bog'liq. Ayniqsa, o'spirinlik davrida shaxsiy identifikatsiya jarayoni faol kechishi sababli virtual tahdidlar kuchli psixologik bosim omiliga aylanishi mumkin.

Psixokorreksion dasturlar samaradorligini aniqlash jarayonida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Amalga oshirilgan psixologik treninglar, suhbatlar va korreksion mashg'ulotlardan so'ng yuqori xavotir holatlari 48 foizdan 27 foizgacha kamaydi, o'ziga ishonchsizlik holatlari esa 42 foizdan 23 foizgacha pasaydi. Ijtimoiy chekinish ko'rsatkichi ham 39 foizdan 21 foizgacha kamayib, o'spirinlarning muloqotga kirishish faolligi oshgani kuzatildi. Shuningdek, psixokorreksion ishlar natijasida o'spirinlarning kommunikativ qobiliyatlari, o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari va muammoli vaziyatlarni hal qilish strategiyalari rivojlandi. Treninglardan keyin muloqot faolligi 46 foizdan 72 foizgacha oshgani aniqlandi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kiberbullingning oldini olishda faqatgina internetdan foydalanishni nazorat qilish yetarli emas. Bunda o'spirinlarning psixologik immunitetini shakllantirish, raqamli madaniyatini rivojlantirish, stressga chidamliligini oshirish va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Umumiy natijalar asosida kiberbulling profilaktikasida psixolog, pedagog va ota-onalar hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuv eng samarali vosita ekanligi aniqlandi. Psixokorreksion metodlardan foydalanish o'spirinlarning emotsional holatini barqarorlashtirish, o'ziga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda virtual muhitdagi xavflarga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish imkonini beradi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlil va tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, o'spirinlar orasida kiberbulling hodisasi zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi murakkab psixologik-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Kiberbulling oddiy virtual tajovuz shakli sifatida emas, balki o'spirinning emotsional holati, o'zini anglash jarayoni, ijtimoiy moslashuvi va psixologik xavfsizligiga ta'sir etuvchi ko'p omilli hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'spirinlik davrida shaxsiy identifikatsiya, tengdoshlar tomonidan qabul qilinish ehtiyoji va ijtimoiy mavqega intilish kuchayganligi sababli kiberbullingning psixologik ta'siri yanada chuqur kechadi. Virtual muhitdagi tahdid, haqorat, kamsitish yoki ijtimoiy chetlatish o'spirinda xavotir, stress, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, yolg'izlik hissi va kommunikativ qiyinchiliklarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ilmiy tahlillar asosida kiberbullingning kelib chiqishi faqat texnologik omillar bilan emas, balki shaxslararo munosabatlar, oilaviy tarbiya xususiyatlari, emotsional nazorat darajasi, axloqiy qadriyatlar va raqamli madaniyatning shakllanganlik darajasi bilan ham bog'liqligi aniqlandi. Shu sababli kiberbullingga qarshi kurashish jarayoni faqatgina taqiqlash yoki nazorat qilish mexanizmlariga emas, balki o'spirinning psixologik barqarorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvga asoslanishi lozim. Tadqiqot natijalari psixokorreksion faoliyatning o'spirinlarda kiberbulling oqibatlarini kamaytirishda muhim imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Psixologik treninglar, kommunikativ mashqlar, kognitiv-xulqiy yondashuv elementlari hamda emotsional boshqaruvga qaratilgan metodlar orqali o'spirinlarning o'zini baholashi yaxshilanadi, stressga chidamlilik darajasi oshadi va ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etish ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, kiberbulling profilaktikasida oila, ta'lim muassasasi va psixologik xizmat o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'spirinning raqamli muhitdagi xatti-harakatlari uning real hayotdagi ijtimoiy tajribasi, tarbiyaviy ta'sirlar va shaxsiy psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, profilaktik dasturlar o'spirinlarda nafaqat internet xavfsizligi bo'yicha bilimlarni, balki empatiya, mas'uliyat, o'zaro hurmat va konstruktiv muloqot kompetensiyalarini ham shakllantirishi zarur.

Kiberbullingning oldini olish va psixokorreksion imkoniyatlarini rivojlantirish zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi o'spirinning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan tizimli, ilmiy asoslangan va uzluksiz ta'sir mexanizmlariga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kiberbullingga qarshi samarali kurashishning eng muhim sharti – o'spirin shaxsining psixologik himoya imkoniyatlarini kengaytirish va uning raqamli jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatish kompetensiyasini shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Kowalski, R. M., Limber, S. P., Agatston, P. W. Cyberbullying: Bullying in the Digital Age. 2nd Edition. Wiley-Blackwell, 2012.
4. Hinduja, S., Patchin, J. W. Bullying Beyond the Schoolyard: Preventing and Responding to Cyberbullying. 2nd Edition. Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2015.
5. Patchin, J. W., Hinduja, S. Cyberbullying and Self-Esteem. Journal of School Health, 2010. Vol. 80(12). P. 614-621.
6. Tokunaga, R. S. Following You Home from School: A Critical Review and Synthesis of Research on Cyberbullying Victimization. Computers in Human Behavior, 2010. Vol. 26(3). P. 277-287.
7. Willard, N. E. Cyberbullying and Cyberthreats: Responding to the Challenge of Online Social Aggression, Threats, and Distress. Champaign, Illinois: Research Press, 2007.
8. Görzig, A., Ólafsson, K. What Makes a Bully a Cyberbully? Unravelling the Characteristics of Cyberbullies Across Twenty-Five European Countries. Journal of Children and Media, 2013. Vol. 7(1). P. 9-27.
9. Livingstone, S., Haddon, L., Görzig, A., Ólafsson, K. Risks and Safety on the Internet: The Perspective of European Children. London: EU Kids Online Network, 2011.
10. Olweus, D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. Oxford: Blackwell Publishers, 1993.
11. Bandura, A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
12. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
13. Smith, P. K., Mahdavi, J., Carvalho, M., Fisher, S., Russell, S., Tippett, N. Cyberbullying: Its Nature and Impact in Secondary School Pupils. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 2008. Vol. 49, Issue 4. P. 376-385.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.